

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBOSINOV AYDOS KURALBAEVICH

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)
in Economics Sciences**

Bekbosinov Aydos Kuralbaevich

“Sanoat korxonalarida innovatsion rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish samaradorligi” (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida).....3

Бекбосынов Айдос Куралбаевич

Эффективность совершенствования управления инновационным развитием на промышленных предприятиях (на примере Республики Каракалпакстан).....27

Bekbosinov Aydos Kuralbaevich

Efficiency of improving the management of innovative development at industrial enterprises (on example of Republic Karakalpakstan)51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works56

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Iqt1616 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Allaeva Gulchexra Jalgasovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xankeldieva Guzal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «23» sentyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Charjau Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Charjau Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «08» sentyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil «08» sentyabr dagi № 38 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov

J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d. (PhD), dotsent

T.Doschanov

T.Doschanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBOSINOV AYDOS KURALBAEVICH

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hayot sifatining ortib borishi, raqobatning keskin darajada kuchayishi, talab-taklif tarkibida innovatsion natijalarning ustuvorlik kasb etishi hamda globalizatsiya va raqamlashtirish sharoitida ishlab chiqarishning intellektual darajasining ortib borishiga ko‘ra innovatsion omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Butun jahon intellektual mulk tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra “jahonda innovatsion iqtisodiyotga ko‘ra eng rivojlangan mamlakatlar tarkibida Shveysariya, AQSh, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya bo‘lib, eng kuchli o‘ntalik tarkibiga Xitoy Xalq Respublikasi jadal yaqinlashib bormoqda”¹. Bugungi kunda innovatsiya milliy iqtisodiyotlar, mintaqalar, tarmoqlar va sanoat ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy barometrqa aylanib bormoqda.

Jahonda sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishda ishlab chiqarishga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda modernizatsiyalash jarayonini amalga oshirish, ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada, jumladan quyidagi mavzulardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda: innovatsion rivojlanish talablariga ko‘ra asosiy fondlarni yangilash siyosatini asoslash; yashil iqtisodiyotga ko‘ra ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonini optimal tashkil qilish; strategik maqsadlarga ko‘ra ishlab chiqarish-fan integratsiyasini doimiy/vaqtinchalik ilmiy guruhlar tartibida shakllantirish samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini innovatsion asoslarda rivojlantirish, ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va kadrlar ta‘minotini amalga oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bugungi kunda mamlakatimiz Global innovatsion indeksi reytingiga (2021 yil)² ko‘ra 40-pozitsiyadan (2015) bir necha bor yuqoriga ko‘tarildi. “Mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, iqtisodiyotning real sektori va ishlab chiqarish tarmoqlarining ilmiy ishlanma va innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash hamda tarmoq ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish asosida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash”³ kabi vazifalar belgilangan. Bu borada innovatsion rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini innovatsion chora-tadbirlar izchilligiga ko‘ra takomillashtirish, jarayonni boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasini jami xarajatlarni optimal darajada kamaytirishga ko‘ra takomillashtirish, ishlab chiqarishning diversifikatsiya, lokalizatsiya va ilmiy ta‘minoti darajasini oshirish

¹ Глобальный инновационный индекс развитых стран за 2022 год – https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2022/article_0011.html

² Инновационное развитие, формирующее высокотехнологичный сектор процветающей экономики – <https://yuz.uz/ru/news/innovatsionnoe-razvitie-formiruyuee-vsokotexnologichny-sektor-prosvetayuey-ekonomiki>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi PF-6198 «Ilmiy va innovatsion faoliyat sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni.

mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198 «Ilmiy va innovatsion faoliyat sohaslarida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy davlatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Subyektlarning innovatsion rivojlanishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar J.B.Kuin, B.Chaklader, M.Landoni, A.Ramus, N.Rozenberg, A.Stirling, M.Blomstrom, F.Malerba va boshqa shu kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan⁴.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi masalalari MDH malakatlaridagi tadqiqotchi-olimlarning ishlarida ham aks ettirilgan bo‘lib, ular qatorida A.V.Fedotov, A.Xachaturyan, A.S.Kokorev, N.S.Somenkov, A.V.Zastupov, G.A.Krayuxin, S.V.Sviridova, P.A.Konxo, E.M.Zibareva va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir⁵.

⁴ Quinn, J. B. (1985). Innovation and corporate strategy: Managed chaos. *Technology in society*, 7(2-3), 263-279.; Chaklader, B., Gupta, B. B., & Panigrahi, P. K. (2023). Analyzing the progress of FINTECH-companies and their integration with new technologies for innovation and entrepreneurship. *Journal of Business Research*, 161, 113847.; Landoni, M. (2017). Innovation policy in progress. Institutional intermediation in public procurement of innovation: satellite telecommunications in Italy. *R&D Management*, 47(4), 583-594.; Ramus, C. A. (2002). Encouraging innovative environmental actions: what companies and managers must do. *Journal of world business*, 37(2), 151-164.; Rosenberg, N. (2009). Some critical episodes in the progress of medical innovation: An Anglo-American perspective. *Research Policy*, 38(2), 234-242.; Stirling, A. (2009). Direction, distribution and diversity! Pluralising progress in innovation, sustainability and development.; Blomström, M., Kokko, A., & Sjöholm, F. (2002). Growth and innovation policies for a knowledge economy: Experiences from Finland, Sweden, and Singapore. Background paper for the LAC Flagship Report. Washington, DC: World Bank.; Malerba, F. (2007). Innovation and the dynamics and evolution of industries: Progress and challenges. *International Journal of Industrial Organization*, 25(4), 675-699.

⁵ Федотов, А. В., & Васюков, А. В. (2014). Определяющие факторы инновационного развития промышленных предприятий. *Управление экономическими системами: электронный научный журнал*, (2 (62)), 31.; Хачатурян, А. А., & Хачатурян, К. С. (2016). Инновационное развитие промышленных предприятий как основа повышения качества функционирования национальной инновационной системы. *Транспортное дело России*, (5), 6-8.; Кокорев, А. С. (2017). Инновационное развитие промышленных предприятий в кластере. *Азимут научных исследований: экономика и управление*, 6(2 (19)), 130-132.; Соменкова, Н. С. (2008). Формирование стратегии инновационного развития промышленного предприятия. *Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского*, (1), 160-162.; Заступов, А. В. (2020). Инновационное развитие предприятий промышленных отраслей в условиях цифровой модернизации экономики. *Бизнес. Образование. Право*, (1), 244-250.; Краюхин, Г. А., Ершов, В. Ф., Ли, И. В., & Фраймович, В. Б. (2011). Инновационное развитие промышленных предприятий на основе управления изменениями. *Международный журнал экспериментального образования*, (7), 98-99.; Свиридова, С. В. (2016). Формирование организационно-экономического механизма реализации стратегии инновационного развития промышленных предприятий. *Организатор производства*, (1 (68)), 73-79.; Кохно, П. А., & Родина, Е. А. (2016). Инновационное развитие промышленного предприятия с учетом деловой репутации. *Научный вестник оборонно-промышленного комплекса России*, (1), 27-37.; Зибрева, Е. М., & Гарифуллин, Р. Ф. (2012). Классификация стратегий инновационного развития промышленного предприятия. *Вестник Алтайской академии экономики и права*, (1), 22-24.

Mazkur olimlarning ishlarida innovatsiyalar muammosini o'rganishga sezilarli hissa qo'shgan "innovatsion rivojlanish" tushunchasiga nisbatan ta'riflar ochib berilgan va to'ldirilgandir.

Bizning mamlakatimiz olimlari ham innovatsiyalar menejmenti va innovatsion rivojlanish muammolarini tadqiq qilishga sezilarli hissa qo'shganlar. Ular qatorida N.K.Yuldashev, Sh.A.Mirsaidova, Y.D.Goldman, Sh.N.Zaynutdinov, X.T.Muxitdinov, U.Gafurov, A.M.Kadirov, M.A.Maxkamova, R.I.Nurimbetov, Sh.I.Otadjanov, A.Artikov, B. S. Kalmuratov va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin⁶.

Biroq mazkur olimlarning innovatsion rivojlanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida innovatsion menejment konsepsiyasining fundamental asoslari, innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali tizimi, shuningdek, korxonalarda innovatsion rivojlanish darajasini baholashga metodik yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Mana shunga bog'liq holda innovatsion rivojlanish muammolarini tadqiq qilish, innovatsion rivojlanishni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur yo'nalishdagi dolzarb vazifaga aylanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy loyihalari doirasida, shu jumladan, PZ-2017-09-2718 "Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning ilmiy asoslari" nomli davlat fundamental tadqiqotlari loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

⁶ Йўлдошев Н.Қ., Мирсаидова Ш.А., Голдман Й.Д. Инновацион менежмент – Т.: ТДИУ. 2011. 286-б.; Зайнутдинов Ш.Н. Инновацион салоҳиятни ошириш стратегияси // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали, 2011, 1 сон, сентябрь; Мухитдинов Х.Т. Инновацион салоҳият шаклланиши ва ривожланишини таҳлил қилишга институционал ёндашув // Иқтисодиёт ва молия, 2012, 2 сон, 2-6 бетлар.; Гофуров У. Инновацион ғояларни амалиётга жорий этишда кичик бизнес иштирокини фаоллаштириш// Иқтисодиёт ва молия, 2012, 2 сон, 17-23 бетлар.; Кадыров А. М. «Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка». Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновация, конкурентоспособность, инвестиции».-Т., 23 апреля 2008 г.; Махкамova М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: 2004, – 291 с.; Нуриббетов Р.И., Джуманиязов У.И. Мамлакат иқтисодий ривожланишини таъминлашда инновацион бошқарувнинг ўрни ва аҳамияти// Иқтисодиёт ва таълим, 2018, 4 сон; Отажанов Ш. И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Т.: 2018,–56 б. А. Артыков «Концептуальные основы научно-технической и инновационной политики региона» Биржа эксперт 2009, №6, 42-44 стр. Умаров И., Саидкаримова С., Облокулова Ш.. Саноат корхоналарининг инновацион салоҳияти кўрсаткичлари таҳлили// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. 2015 йил. 4 сон, июль-август. Қалмуратов Б.С. Минтақа саноатини инновацион ривожлантиришни бошқариш механизми самарадорлигини ошириш стратегияси. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Н.: 2023,–37 б

bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion rivojlanishning uslubiy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

intellektual mulkning innovatsion rivojlanish obyekti sifatidagi mohiyatini ochib berish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanishni boshqarishning xorijiy tajribasini o'rganish;

sanoat korxonalarini rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish;

sanoat ishlab chiqarishini texnologik yangilash holati va innovatsion rivojlanishni tahlil qilish;

sanoat korxonalarining innovatsion ta'minlanishini tahlil qilish;

mintaqada innovatsion rivojlanishning muhim yo'nalishlarini asoslash va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

mintaqa darajasida innovatsion rivojlanish va innovatsion loyihalar samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat tarmog'i va unda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari faoliyati.

Tadqiqot predmeti bo'lib sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli va omilli tahlil, ilmiy abstraksiya, sintez, taqqoslash, qiyosiy tadqiq qilish, matematik, statistik, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sanoat korxonasini innovatsion rivojlantirishni boshqarish mexanizmi innovatsion loyihaning yaxlitligini (kadrlar ta'minotida korxonalar personali bilan bir qatorda loyihada ishtirok etuvchi ilmiy/ta'lim muassasalari xodimlari, boshqa tashkilotlar taalluqli infratuzilmalari; manfaatdor korxonalar birgaligi) tashkil qilish va innovatsion chora-tadbirlar izchilligiga ko'ra takomillashtirilgan;

sanoat ishlab chiqarishining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda korxonalar iqtisodiy-ijtimoiy holati va istiqboli tahlilini ishlab chiqarish innovatsion strukturasi takomillashtirish, ishlab chiqarishning intensivikasiya, diversifikatsiya, lokalizatsiya va ilmiy ta'minotini darajasini oshirishga ustuvor darajada amalga oshirishning samaradorligi asoslangan;

sanoat ishlab chiqarishi korxonalarini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasi hududda ishlab chiqarish samarasi (foйда)ni maksimallashtirish va jami xarajatlarni optimal darajada kamaytirishga ko'ra takomillashtirilgan;

sanoat ishlab chiqarish samaradorligi oshirishni e'tiborga olgan holda sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarining 2027-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishning bugungi kunda foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlari va zahiralari aniqlangan;

sanoat korxonalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida inson kapitalini faollashtirishning tizimli chora-tadbirlari taklif qilingan;

sanoat ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirishni samarali boshqarishda dasturiy-maqсадli boshqaruv yondashuvini qo'llashning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rasmiy manbalardan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, "O'z kimyosanoat" AJ dan olingan ma'lumotlardan foydalanilganligi, qo'llanilgan yondashuvlar va metodlarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, xulosa va takliflarning kompetentli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif va tavsiyalar sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish jarayonini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, sanoat korxonalarini faoliyatini innovatsion rivojlantirish samaradorligini baholash apparatini takomillashtirish va innovatsion jarayonlarni boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati asoslab berilgan taklif va tavsiyalardan innovatsion rivojlanish sharoitida resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faollikni jadallashtirish, sohani samarali boshqarishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

sanoat korxonasini innovatsion rivojlantirishni boshqarish mexanizmi innovatsion loyihaning yaxlitligini (kadrlar ta'minotida korxonalar personalini bilan bir qatorda loyihada ishtirok etuvchi ilmiy/ta'lim muassasalari xodimlari, boshqa tashkilotlar taaluqli infratuzilmalari, manfaatdor korxonalar birgaligi) tashkil qilish va innovatsion chora-tadbirlar izchilligiga ko'ra takomillashtirish bo'yicha taklif Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi tomonidan "Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqarishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 23-maydagi AO-22/01-945-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarish korxonalarini innovatsion rivojlantirish dasturi va yo'l xaritalarining asoslanish darajasini oshirishga xizmat qilgan;

sanoat ishlab chiqarishining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda korxonalar iqtisodiy-ijtimoiy holati va istiqboli tahlilini ishlab chiqarish innovatsion strukturasi takomillashtirish, ishlab chiqarishning intensivikasi, diversifikatsiya, lokalizatsiya va ilmiy ta'minotini darajasini oshirishga ustuvor darajada amalga oshirishning samaradorligi taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo

vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 23-maydagi AO-22/01-945-son ma’lumotnomasi). Taklifdan foydalanish natijasida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni uslubiy-amaliy jihatdan keng joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

sanoat ishlab chiqarishi korxonalarini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasini hududda ishlab chiqarish samarasi (foyda)ni maksimallashtirish va jami xarajatlarni optimal darajada kamaytirishga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha takliflar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 23-maydagi AO-22/01-945-son ma’lumotnomasi). Ushbu takliflar jami xarajatlarni 7 foizga qisqartirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat ishlab chiqarish samaradorligi oshirishni e’tiborga olgan holda sanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlarining 2027-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi investitsiya, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 23-maydagi AO-22/01-945-son ma’lumotnomasi). Mazkur takliflardan foydalanish sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishning ssenariyli yondashuvlari va hududiy dasturlar asoslanish darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Dissertatsion tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e`lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, OAK tomonidan tavsiya qilingan respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda 5 ta, xalqaro ilmiy jurnallarda esa 2 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyani tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat va ishning umumiy hajmi 119 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati, uning fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi asoslab berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tarkibi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning metodik asoslari keltirilgan. Korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishga taʼsir koʻrsatuvchi omillar belgilab berilgan, shuningdek, boshqaruvning xorijiy tajribalari oʻrganilgan.

Jahon sanoatining hozirgi rivojlanish bosqichi innovatsiyalardan samarali foydalanishga asoslanadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy oʻsish darajasi bevosita innovatsion rivojlanish bilan bogʻliqdir. Shuning uchun har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida innovatsiyalarning roli juda kattadir. Sanoat ishlab chiqarishida korxonalarining innovatsion faolligiga ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasi va ishlab chiqarishning hamda shunga mos holda butun tarmoqning ham bevosita bogʻliq boʻlganligi uchun innovatsiyalarga juda katta diqqat qaratiladi.

Ishlab chiqarish sohasining innovatsion rivojlanishi metodologiyasining amalga oshirilgan tahlili koʻrsatadiki, iqtisodiy samarani koʻpincha albatta “innovatsiya”ni yaratgan subyekt emas, balki uni muvaffaqiyatli joriy eta olgan va uni qoʻllay oladigan subyekt qoʻlga kiritadi. Taʼkidlab oʻtish zarurki, texnika yoki texnologiya sifatidagi ilmiy yutuqlar har doim nafaqat mantiqli, balki xoʻjalik xususiyatiga ham egaligi taʼkidlanadigan amaliyotga kuchli darajada bogʻliq boʻladi⁷.

Akademik A.Anchishkin taklif qilgan tasnifga koʻra yangiliklarni ilmiy bilimlarning turli xil boʻgʻinlarining materiallashuvi darajasiga bogʻliq holda uchta tipga ajratish mumkindir⁸:

1. Yangiliklarning birinchi tipi ishlab chiqarish kuchlarini revolyutsionlashtiradigan printsiplial jihatdan yangi ilmiy gʻoyalarning amalga oshirilishi bilan bogʻliq boʻladi.

2. Yangiliklarning ikkinchi tipi texnika va texnologiyalarning bosqichma-bosqich avlodlar almashinuviga, tayanch ilmiy tamoyillarning saqlanib qolishi bilan birga yangi texnologiyalarning joriy qilinishiga asoslanadi.

3. Yangiliklarning uchinchi tipi texnikaning mavjud avlodi parametrlari yoki ayrim koʻrsatkichlari miqdoriy yaxshilanishi bilan bogʻliq boʻladigan modifikatsion oʻzgarishlarga taalluqli boʻladi.

Innovatsion menejment oʻzida boshqaruv xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatning oʻziga xos shaklini namoyon qiladi. Uning asosiy maqsadi bozor subyektlari tomonidan oʻrnatiladigan maʼlum bir innovatsion maqsad va vazifalarga erishishdan iborat boʻladi. Hozirgi zamon korxonasida innovatsion menejmentning asosiy vazifasi boʻlib ilmiy, mehnat, moddiy, nomoddiy va moliyaviy resurslardan ratsional foydalanish hisoblanadi. Bunga boshqaruv iqtisodiy

⁷ Ловчикова, М. А. (2012). Философско-экономическая концепция хозяйствования СН Булгакова и особенности социально-экономического развития России. Научные труды Вольного экономического общества России, 161, 426-443.

⁸ Варшавский, А. Е. (2013). Идеи академика АИ Анчишкина и проблемы инновационного развития России. Мир новой экономики, (3-4), 52-60.

mexanizmining turli xil funksiyalari, tamoyillari va metodlarini qo'llash yo'li bilan erishiladi⁹.

Bu barcha omillar o'zaro ta'sirlashadilar va korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadilar. Bu omillarni muvaffaqiyatli boshqarish tizimli yondashuv, egiluvchanlik va tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanlikni, shuningdek, innovatsiyalarga va yangi imkoniyatlarni izlab topishga doimiy intilishni talab qiladi.

Shunday qilib, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi elementlar va omillarni aniqlash innovatsion rivojlanishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi. Muallif tomonidan sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarish mexanizmining asosiy elementlari sifatida quyidagi sxema ishlab chiqilgan bo'lib, u 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishini boshqarish mexanizmi¹⁰.

Birinchi tasvirni tahlil qila turib, ta'kidlash mumkinki, innovatsion rivojlanishning barcha komponentlari o'zaro bog'langan va innovatsiyalarni boshqarish tuzilmasidagi to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqalarni aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlikni hosil qiladi. Innovatsion rivojlanish metodologiyasini takomillashtirishdagi sezilarli tendensiyalardan biri bo'lib uning samaradorligini baholash hisoblanadi, chunki samaradorlikning o'zi innovatsion rivojlanish natijasi sifatida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Samaradorlik ko'rsatkichi odatda ulushli birliklarda yoki foizlarda o'lchanadigan nisbiy qiymat bo'lib hisoblanadi va sarflangan resurslardan olingan natijalarni aks ettiradi. Samaradorlik mezonini berilgan samaraga erishish uchun bir

⁹ Бекбосынов, А. К. Совершенствование методологических аспектов управления инновационным развитием предприятия в условиях модернизации экономики / А. К. Бекбосынов // Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7, № 11. – С. 274-283. – DOI 10.33619/2414-2948/72/34. – EDN BJRBMK.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

vaqtning o'zida sarflar (ishlab chiqarish xarajatlari)ni minimallashtirish bilan samara (foйда)ni maksimallashtirishdan iborat bo'ladi.

Umuman, innovatsion rivojlanish samaradorligi samara va u bilan bog'liq sarflar orasidagi natija hamda nisbatni belgilab, buning natijasida quyidagi samaralarga ega bo'lish mumkin bo'ladi: texnik samara (yangi texnika va texnologiyalarning paydo bo'lishi); resursli samara (korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish); iqtisodiy samara (mehnat unumdorligining ortishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellikning o'sishi); ijtimoiy samara (aholi turmushining moddiy va madaniy darajasi ortishi va inson ehtiyojlarining qondirilishi).

Sanoat korxonalarining rivojlanishiga innovatsiyalarning joriy qilinishi ancha samarali bo'lishi mumkin.

Birinchidan, innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligi ortishiga va sarf-xarajatlarning kamayishiga yordam berishi mumkin bo'lib, bu korxonalar faoliyatining natijadorligi yaxshilanishiga olib keladi. Yangi texnologiyalar, jarayonlar yoki ish metodlari ishlab chiqarish vaqti va sarflarini kamaytirishi, mahsulot yoki xizmatlar sifatini yaxshilashi, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, innovatsiyalar bozorlarni kengaytirishga va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishi ham mumkin. Bozor talablariga javob beradigan yangi mahsulot yoki xizmatlarning joriy etilishi yangi klientlarni jalb qilishi va bozordagi pozitsiyalarni mustahkamlashi mumkin. Shuningdek, innovatsiyalar korxonalariga o'z biznesini kengaytirish bilan yangi tarmoq yoki mintaqalarda rivojlanishiga imkon berishi mumkin.

Uchinchidan, innovatsiyalar korxonalarining o'zining rivojlanishiga va taraqqiy qilishiga yordamlashadi. Innovatsiyalarni joriy qilish xodimlarning bilim va ko'nikmalari doimiy yangilab borilishini, shuningdek, tashkilot ichida innovatsion madaniyat yaratilishini talab qiladi. Bu personalning malaka darajasi ortishiga, ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga va innovatsion muhit rivojlantirishiga olib kelishi mumkin bo'lib, bu o'z navbatida korxonalarining rivojlanishi va o'sishiga ko'maklashadi.


Shunday qilib, sanoat korxonalarining rivojlanishiga innovatsiyalarning joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligi ortishiga, bozorlarning kengayishiga va raqobatbardoshlikning ortishiga olib kelishi, shu jumladan, korxonalarining o'zining rivojlanishiga yordamlashishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi”** nomli ikkinchi bobida sanoat korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlanishi tendensiyalari belgilangan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni texnologik yangilash va innovatsion rivojlantirishni baholash usullari keltirilgan, shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishida investitsion ta'minot tahlili bajarilgan.

Sanoat – bu xo'jalik faoliyatining o'ziga xos sohasi bo'lib, u yerda har bir mamlakatning sanoat amaliyoti qo'llaniladi va yuzaga chiqariladi. Sanoatning rivojlanishini ikki yoqlama baholash mumkin. Birinchidan, sanoat ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishining asosiy tayanchi bo'lib hisoblanadi va ikkinchidan, sanoatning teskari tendensiyasi innovatsion rivojlanishning qudratli dvigateli bo'lib

hisoblanadi, ya'ni, u yerda yangi texnika va texnologiyaning yaratilishi, yangi mahsulotning ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi, innovatsiyalar bo'yicha yangi g'oyalar yuzaga chiqariladi. Mana shunday qilib, sanoat va innovatsion rivojlanish – bular o'zaro bog'langan jarayondir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini tubdan qayta tashkil etish, eng avvalo, uning tuzilmasini o'zgartirish, modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yangi shakllarini joriy qilish, diversifikatsion va klasterli jarayonlarni rivojlantirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda yildan-yilga YaIM tarkibida sanoat ishlab chiqarishining hajmi o'zgarib bormoqda. Agarda 2011-yilda sanoat hajmi 24 % ni tashkil etgan bo'lsa, u holda hozirgi vaqtda u 36 % gacha o'sdi. Eksportda tayyor sanoat mahsulotining hajmi hozirgi vaqtda 70 % ga tengdir. 2022-yilda eksport hajmi 16,0 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo'lib, eksportning katta qismini sanoat mahsulotlari tashkil etadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2011-2022-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (mlrd. so'm)¹¹.


Respublikada sanoat-iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi sanoat mahsulotlari hajmini oshirishga yangicha turtki berdi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda erkin iqtisodiy va sanoat zonalari soni 47 birlikdan ham ortib ketdi. Ta'kidlab o'tish lozimki, ayniqsa, kichik sanoat zonalari tezkor sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash uchun 2020-yildan boshlab yoshlar kichik sanoat zonalari tashkil etila boshlanib, ularning jahonda analogi mavjud emasdir¹².

So'nggi yillarda sektorning tuzilmaviy qayta tashkil etilishi bo'yicha islohotlar amalga oshirilyapti, buning hisobiga mamlakatda sifati va raqobatbardoshligi bo'yicha xorijiy analoglari bilan taqqoslana oladigan sanoat tovarlari ishlab chiqarilmoqda, ya'ni, sanoat mahalliyashtirish dasturi bilan mos holda ekportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga o'tmoqda. Sanoat va uning asosiy tarmoqlarining o'sish sur'atlari 2-rasmda ko'rsatilgan.

¹¹ Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

¹² Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 13.03.2023 г. № 105 «О внесении изменений и дополнений в некоторые постановления, а также о признании некоторых утратившими силу в связи с совершенствованием деятельности промышленных зон и фонда поддержки молодых предпринимателей правительство Республики Узбекистан» – <https://lex.uz/uz/docs/6406765>

2022-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 888341,7 milliard so‘mni tashkil etib, 2011-yilga nisbatan 8,6 barobar ko‘pdir. Shubhasiz, yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga ko‘plab omillar, jumladan, bandlik, investitsiyalar, eksport va boshqalar yordam beradi. Mamlakatimizda qurilish va qishloq xo‘jaligida ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘shishi kuzatilmoqda. So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda qurilish “bumi” kuzatildi, yangi uylar qurilmoqda, ijtimoiy soha obyektlari qurilmoqda, birgina 2022-yilning o‘zida 130800 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi, bu esa o‘shish sur‘atlari oshganidan dalolat beradi. O‘tgan yilga nisbatan 21% ga ko‘p.



3-rasm. Tarmoqlar tarkibining o‘zgarishi (%)¹³.

Tarmoqlar tarkibini o‘zgartirish yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishiga, tarmoqlarning o‘shishiga, korxonalarining ixtisoslashuviga va yangi bozorlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu tadbirkorlar, investorlar va ishchi kuchi uchun yangi imkoniyatlar yaratishi, shuningdek, iqtisodiy o‘shish va rivojlanishga yordam berishi mumkin (3-rasmga qarang).

Mamlakatimizda so‘nggi bir yil ichida sanoat tarmoqlari tarkibida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi, bugungi kunda qurilish sanoati eng katta qismini egallaydi – qariyb 23,7 foizni tashkil etadi, energetika 7 foizni tashkil etadi, sanoatning boshqa tarmoqlarining ulushi esa jami 59,5% ni tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy-geografik joylashuvi bo‘yicha O‘zbekistonda eng katta mintaqaga bo‘lib hisoblanadi, biroq sanoatining rivojlanishi bo‘yicha hozircha eng qo‘lqarshi mintaqalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masalaga atroflicha to‘xtalib o‘tirmasdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoat sektorining rivojlanishi tahlilini va uning respublikadagi o‘rtacha rivojlanish darajasi bilan taqqoslanishini amalga oshiramiz.

Ta‘kidlab o‘tish kerakki, Qoraqalpog‘iston sanoatining umumrespublika hajmidagi solishtirma vazni 2,3 % ni tashkil etib, eksport bo‘yicha 16 % ga tengdir.

¹³ Muallif tomonidan statistik ma‘lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining o'ta past sur'ati diversifikatsion jarayonlarda ham kuzatiladi. Shu bilan birga aytib o'tish lozimki, so'nggi yillarda mintaqa sanoatining rivojlanishi jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. O'zbekistondagi barcha mintaqalarning majmuaviy rivojlantirilishi bo'yicha keng ko'lamli vazifalar amalga oshirilmoqda. Mana shu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatini ilgarilanma sur'atlar bilan amalga oshirish lozim bo'ladi. Ma'lumki, Qoraqalpog'iston yer osti boyliklari va foydali qazilmalarning (masalan, qum, shag'al, metall, oziq-ovqat va texnik soda tayyorlash uchun xom-ashyo va shu kabilar) juda yirik zaxiralariga ega sanaladi. Ularga yuz yildan ortiq davr mobaynida soda ishlab chiqarishda foydalanishni ta'minlaydigan ko'p million tonnali xom-ashyo zahiralari kiritiladi.

Tarmoqlarning qiyosiy ko'rsatkichlari Qoraqalpog'istonda sanoatning o'sish sur'atlari hamon respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ortda qolayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining o'sish sur'atlari (%)¹⁴

Sanoat tarmoqlari	yillar						
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Mashinasozlik	49,3	272,7	288,1	75,7	188,9	63,5	44,1
Metallurgiya	114,7	63,5	86,3	90,7	263,5	71,3	207,3
Kimyo	239,8	563,5	112,3	96,77	108,2	103,2	105,6
Oziq-ovqat	137,5	103,6	104	108,7	109,5	109,4	100,5
Qurilish	105,3	89,4	112,3	125,8	128	107	103,8
Teri	92,5	122,6	69,3	127,1	359,2	120,3	96,4
Farmatsevtika	72,7	142,2	274,3	204,8	127,2	170,5	53,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, metallurgiya, qurilish, oziq-ovqat va kimyo sanoati kabi yetakchi tarmoqlar mavjud. Birgina 2021 yilning o'zida metallurgiya sanoatida 290,7 foiz o'sish sur'ati bu boradagi ishlar faollashganidan dalolatdir. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoatning orqada qolayotgan tarmoqlari, jumladan, mashinasozlik va farmatsevtika sohalari mavjud. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat davlatning barcha hududlarida rivojlanishi kerak. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sanoatni nafaqat markaziy shaharlarda rivojlantirish, balki hududlardagi har bir tumanni rivojlantirishni ham hisobga olish zarurligini bir necha bor ta'kidladi. Shu bois kichik sanoat zonalarini (KSZ) rivojlantirish siyosati ushbu muammoni hal qilishga qaratilishi kerak.

So'nggi yillarda respublikada kimyo sanoati tezkor sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda kimyo sanoati korxonalarida 170 dan ortiq kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. So'nggi besh yilda "O'zkimyosanoat" AJ ning ko'plab moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiy tusga ega bo'ldi. Biroq, 2020-2021-yillarda koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq holda iqtisodiyotning boshqa sektorlaridagidek ishlab chiqarish sur'atlari pasaydi. Shu bilan bir vaqtda Qo'ng'irotda soda zavodida sof foyda sezilarli o'sishni ko'rsatdi. "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga

¹⁴ Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

kiruvchi “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK yetakchi ilg‘or korxonada bo‘lib hisoblanadi. U 2006-yil avgustida mahalliy xom-ashyo negizida tashkil etilgan edi. Zavod mahsulotlari bugungi kunlarda ko‘plab xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. Zavod yildan-yilga o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilab bormoqda (2-jadval).

2-jadval

Qo‘ng‘irot soda zavodining 2017-2022-yillardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘shish dinamikasi ¹⁵

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Mahsulot hajmi	ming tonna	172,2	188,6	188,2	185,3	184,8	186,7
Personal soni	Kishi	1835	1838	1835	1833	1839	1845
Asosiy fondlar	mlrd. so‘m	70,0	624,5	673,7	745,3	753,2	758,3
Investitsiyalar	mlrd. so‘m	7,2	8,0	1,4	11,9	20,8	24,8
Foyda	mlrd. so‘m	0,2	0,6	1,8	3,5	82,2	89,5
O‘rtacha ish haqi	mln. so‘m	1,4	2,0	2,5	2,9	3,7	4,04
Rentabellik	%	0,2	0,5	1,0	1,5	33,6	34,3
Eksport	mln. doll.	14,8	13,3	13,8	12,1	16,3	18,4

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi korxonada investitsiyalar hajmi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berayotganidan, 2022-yilda 24,8 milliard so‘mlik investitsiyalar kiritilganidan, kombinat tomonidan oxirgi marta 2015-yilda shunday yirik investitsiyalar amalga oshirilganidan, ish haqi ham oshib borayotganidan dalolat beradi, agar 2015-yilda 0,9 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, hozir 4 mln. so‘mni tashkil etadi. Eksport hajmi ham zavod faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, chunki eksport ulushi nafaqat alohida korxonaga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga katta daromad keltirmoqda. Eksport hajmining o‘shishi korxonaga 2022-yilda 89,5 milliard so‘m daromad olish imkonini berdi, bu esa yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish imkonini berdi.


Zavodning eng muhim o‘ziga xosliklaridan biri bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko‘ra tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda boy xom-ashyo konidan foydalaniladi, ya‘ni, zavod xom-ashyo bilan ta‘minlanishda hech kimga bog‘liq emas. Mana shunga bog‘liq holda mahsulot tannarxi tuzilmasida xom-ashyo katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Mana shundan kelib chiqib korxonada foydalilik yuqori, chunki xom-ashyoni qayta ishlashning texnologik sikli uzoq vaqt davom etmaydi. Shunga mos holda ishlab chiqarish samaradorligi va rentabelligi yuqoridir.

Ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi ishlab chiqarishning avtomatlashtirilganlik va mexanizatsiyalashtirilganlik darajasini oshirish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu yakuniy hisobda korxonaning texnologik darajasini, uning samaradorligini oshiradi. Mashhur olim R.Ouen nazariy va amaliy jihatdan asoslab berganki, iqtisodiyotda bandlikning bir foizga oshirilishi YaIM ni ikki foizga

¹⁵ Muallif tomonidan statistik ma‘lumotlar asosida tuzib chiqilgan.

oshiradi¹⁶. Boshqa ekspertlar esa ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish ishlab chiqarish hajmini 3-4 % ga oshirishni ta`minlashi mumkinligini ta`kidlaydilar.

Yirik sanoat korxonalarining ish tajribasi guvohlik berishicha, innovatsion rivojlanishning sezilarli qismini ishlab chiqarishning ilmiy-texnik tayyorgarligi egallab, u o`z ichiga amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari, yangiliklarning texnologik va sanoat o`zlashtirilishi kabilarni oladi. Yangi mahsulot yaratishni boshqarish jarayonini sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi natijasi va to`g`ridan-to`g`ri hamda qaytar aloqalarga ega tizim sifatida quyidagi sxema ko`rinishida tasvirlash mumkin (4-rasm).



4-rasm. Korxonada yangi mahsulotni yaratish jarayoni¹⁷.

Kimyo sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanishidagi vaziyatni tahlil qilish asosida investitsion ta`minotni yaxshilash uchun quyidagi strategik vazifalarni ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Texnik va texnologik salohiyatni rivojlantirish: qurilmalarni modernizatsiyalash dasturlarini belgilash va ilg`or texnologiyalarni joriy qilish, yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonlarini ishlab chiqish uchun ilmiy-tadqiqotchilik ishlarini amalga oshirish.

2. Ishlab chiqarish va iqtisodiyotning innovatsion tuzilmasini yaratish: innovatsion madaniyatni yaratish va tarmoqda tadbirkorlikni rag`batlantirishga yo`naltirilgan rivojlanishning strategik rejalarni ishlab chiqish va joriy qilish.

¹⁶ Блауг М. Оуэн, Роберт // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2008. — С. 230—232. — 352 с

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

3. Raqobatbardosh tarmoqlarni shakllantirish: bozorlar va salohiyatni tahlil qilish, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, korxonalar va mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

4. Faoliyatni intensivatsiyalash, diversifikatsiyalash va mahalliyashtirish: ishlab chiqarish hajmlarini, mahsulotlar xilma-xilligini oshirish va ichki iqtisodiyotni, shu jumladan, importni qisqartirish va o'z ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish hisobiga mustahkamlash bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish.

5. Ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi, avtomatlashtirilishi va robotlashtirilishi: avtomatlashtirish va robotlashtirish lozim bo'lgan asosiy jarayonlarni identifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha rejani ishlab chiqish, personalni yangi ko'nikmalarga o'rgatish va raqamli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

6. Mashina vaqti ulushini oshirish: ishlab chiqarish liniyalari modernizatsiyalanishini amalga oshirish va mashina vaqtdan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qo'l mehnatiga sarflarni kamaytirish uchun avtomatlashtirish tizimlarini joriy qilish.


Mazkur strategik vazifalarni amalga oshirish investitsion ta'minot yaxshilanishini ta'minlashga va kimyo tarmog'i korxonalarining innovatsion rivojlanishini rag'batlantirishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarish mexanizmini takomillashtirish”** nomli uchinchi bobida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishini boshqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan, sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishi samaradorligini bahosi berilgan, shuningdek, mintaqa sanoatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini rivojlantirish prognozi amalga oshirilgan.

